(6). Hofstede G. Culture's Consequences: Comparing Values, Behaviors, Institutions and Organizations Across Nations. Thousand Oaks, Sage, 2001, 596 p.
(7). Jumatov R.Y., Palvanova S.B. English Advertising Slogans in Political and Commercial Spheres. O'zbekiston olimlarining ilmiy-amaliy tadqiqotlari. 2025, № 1(13), p. 150–155.
(8). Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago, University of Chicago Press, 1980, 242 p.
(9). Leech G.N. Principles of Pragmatics. London, New York, Longman, 1983, 250 p.
(10). Searle J.R. Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts. Cambridge: Cambridge University Press, 1979, 187 p.
(11). Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. Oxford: Oxford University Press, 1991, 179 p.
(12). Wierzbicka A. Understanding Cultures through Their Key Words. New York, Oxford University Press, 1997, 328 p.
(13). Maslova V.A. Lingvokulturologiya. M., "Akademiya", 2001, 208 s.
(14). Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. Toshkent, "O'qituvchi", 1978, 407-bet.
(15). Safarov Sh. Pragmalingvistika. Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2008, 300-bet.
(16). Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. Toshkent, "Fan", 2013, 152-bet.

**Saitxanova Dinara Ruslanovna (Toshkent Amaliy fanlar universiteti dotsenti (PhD); dinara.saitkhanova@mail.ru)**

## INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA O'ZBEK TILI DARSLARIDA INGLIZ TILIDAN O'ZLASHGAN SO'ZLARNI O'ZLASHTIRISH

***Annotatsiya***. *Ushbu ishda integrativ yondashuv asosida o'zbek tili darslarida ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarni o'rgatish masalasi yoritiladi. O'zlashma so'zlarning zamonaviy o'zbek tilidagi o'rni, ularni o'qitishning lingvodidaktik ahamiyati hamda o'quvchilarning kommunikativ va lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, inglizcha o'zlashma so'zlarni matn, lug'at, taqqoslash va kommunikativ topshiriqlar orqali o'rgatish metodlari ko'rib chiqiladi. Ish ta'lim jarayonini zamonaviylashtirish va integrativ yondashuvni takomillashtirishga qaratilgan.*

***Kalit so'zlar***: *integrativ yondashuv, o'zbek tili, ingliz tilidan o'zlashgan so'zlar, o'zlashma leksika, lingvodidaktika, kommunikativ kompetensiya, matn bilan ishlash, lug'at boyligi, zamonaviy ta'lim, metodika.*

**Саитханова Динара Руслановна (доцент, кандидат наук, Ташкентского университета прикладных наук; dinara.saitkhanova@mail.ru)**

## ИНТЕГРАТИВНЫЙ ПОДХОД К ОСВОЕНИЮ ЗАИМСТВОВАННЫХ СЛОВ ИЗ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА УРОКАХ УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКА

***Аннотация.*** *В статье рассматриваются особенности обучения английским заимствованиям на занятиях по узбекскому языку на основе интегративного подхода. Анализируются лингвистическая и лингводидактическая значимость заимствованной лексики, а также её роль в формировании языковой и коммуникативной компетенций обучающихся. Предлагаются эффективные методические приемы работы с английскими заимствованиями посредством текстовых, лексико-семантических, сопоставительных и коммуникативных заданий. Обосновывается потенциал интегративного подхода в совершенствовании содержания и методики преподавания узбекского языка.*

***Ключевые слова:*** *интегративный подход, узбекский язык, английские заимствования, заимствованная лексика, лингводидактика, коммуникативная компетенция, лексическая работа.*

**Dinara Ruslanovna Saitkhanova (Associate Professor (PhD) at Tashkent University of Applied Sciences; dinara.saitkhanova@mail.ru)**

## AN INTEGRATIVE APPROACH TO THE ACQUISITION OF ENGLISH-ORIGIN LOANWORDS IN UZBEK LANGUAGE CLASSES

***Annotation***. *This work examines the teaching of English loanwords in Uzbek language classes based on an integrative approach. It analyzes the role of borrowed vocabulary in modern Uzbek, their linguistic and didactic significance, and their importance in developing students' linguistic and communicative competencies. The study also considers methodological ways of teaching English loanwords through text-based activities, vocabulary work, comparison tasks, and communicative exercises. The research aims to modernize the educational process and improve the effectiveness of the integrative teaching approach in language education.*

***Keywords***: *integrative approach, Uzbek language, English loanwords, borrowed vocabulary, linguodidactics, communicative competence, text-based activities, vocabulary.*

**Kirish (Introduction).** Bugungi globallashuv jarayonida tillar o'rtasidagi o'zaro ta'sir tobora kuchayib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilining xalqaro aloqa, fan, texnologiya, iqtisodiyot, ta'lim va ommaviy kommunikatsiya vositalaridagi mavqeyi uning leksik birliklarining boshqa tillarga faol kirib kelishiga sabab bo'lmoqda. Mazkur jarayon o'zbek tilining lug'at tarkibida ham yaqqol namoyon bo'lib, *internet, marketing, smartfon, brend, startap* kabi ingliz tilidan o'zlashgan birliklarning kundalik va ilmiy-ijtimoiy nutqda keng qo'llanilishiga olib kelmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, o'zbek tili ta'limida o'zlashma so'zlarni faqat lug'aviy birlik sifatida emas, balki ularning kelib chiqishi, ma'nosi, qo'llanish sohasi, uslubiy xususiyatlari va o'zbek tilidagi muqobillari bilan uzviy bog'liq holda o'rgatish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv o'quvchilarda til hodisalarini tahlil qilish, qiyoslash, umumlashtirish va amaliy nutqda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Mazkur vazifani amalga oshirishda *integrativ yondashuv* samarali metodik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Integrativ yondashuv o'quv materialini bir nechta fanlar, til tizimlari va real hayotiy vaziyatlar bilan bog'liq holda o'zlashtirishni nazarda tutadi. O'zbek tili darslarida ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarni o'rganish jarayonida ingliz tili, ona tili, madaniyat, axborot texnologiyalari, iqtisodiyot kabi sohalarga oid bilimlarning o'zaro uyg'unlashtirilishi o'quv jarayonining mazmuniy va amaliy samaradorligini oshiradi.

Fanlararo aloqadorlik g'oyasi pedagogik tafakkur tarixida muhim o'rin egallaydi. Abu Rayhon Beruniy insonning olamni anglashi va borliq haqida yaxlit tasavvurga ega bo'lishida falakiyot, falsafa, tarix, handasa, til va adabiyot kabi fanlarning o'zaro aloqadorligi muhim ekanligini o'z asarlarida qayd etgan [14;344-b.]. Mavjud bilimlarni faoliyatning turli sharoitlariga ko'chira olish qobiliyatini rivojlantirish ham fanlararo aloqadorlikni ta'minlashning muhim vazifalaridan biridir. P.G.Kulaginning fikricha, bilimlarni ko'chirish ko'nikmasining shakllanishi o'quvchiga yangi obyektlarning ayrim xususiyatlarini anglash va ular o'rtasidagi aloqalarni aniqlash imkonini beradi [139;96-b.]. Fanlararo aloqadorlikni amalga oshirishning asosiy maqsadi o'quv jarayonida turli fanlar mazmunini uyg'unlashtirish, mavzularning takrorlanishini kamaytirish, ilmiy tushunchalarni o'zaro muvofiqlashtirish hamda turli fanlardan olingan bilimlardan kompleks foydalanish imkoniyatini yaratishdan iborat.

Pedagog va olim Yan Amos Komenskiy ham o'zining "Buyuk didaktika" asarida ta'limni alohida fanlar doirasida chegaralab qo'ymaslik, balki bilimlarni o'zaro bog'liq holda berish zarurligini ta'kidlagan [131].

D.Alimjonovning ta'kidlashicha, fanlararo bog'lanish ko'p o'lchamli hodisa bo'lib, ta'lim jarayonining mazmuni, metodlari va tashkiliy shakllari bilangina chegaralanmaydi. Fanlararo aloqalar o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati hamda o'qituvchining pedagogik faoliyatini qamrab olib, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash, dialektik tafakkur va bilimlarni amaliy faoliyatga tatbiq etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [105]. Shundan kelib chiqib, tadqiqotimizda integrativ yondashuv asosida ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarni o'rgatishning metodik imkoniyatlarini aniqlashga alohida e'tibor qaratildi.

**Tadqiqotning maqsadi** – o'zbek tili darslarida ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarni integrativ yondashuv asosida o'rgatishning samarali usul va vositalarini aniqlash hamda ularning o'quvchilarning lingvistik va kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishdagi imkoniyatlarini asoslash.

**Tadqiqot metodlari (Methods).** Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Jumladan, ilmiy-metodik adabiyotlarni tahlil qilish, qiyosiy-taqqoslash, lingvistik va leksik-semantik tahlil, kontekstual tahlil, pedagogik kuzatuv hamda metodik modellashtirish usullaridan foydalanildi. Ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarni o'rganishda ularning etimologiyasi, semantik xususiyatlari, o'zbek tilidagi qo'llanish darajasi, grammatik va uslubiy moslashuvi hamda o'zbekcha muqobillari tahlil qilindi.

Metodik topshiriqlarni ishlab chiqishda *onglilik, izchillik, tizimlilik, kommunikativlik, fanlararo integratsiya va amaliy yo'naltirilganlik* tamoyillariga asoslanildi. Integrativ yondashuv doirasida ingliz va o'zbek tillaridagi leksik birliklarni qiyoslash, zamonaviy matnlardan foydalanish, lug'at bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda kommunikativ topshiriqlarni bajarish asosiy metodik vositalar sifatida belgilandi.

**Tadqiqot natijalari (Results).** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ingliz tilidan o'zlashgan so'zlarni integrativ yondashuv asosida o'rgatish o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish bilan bir qatorda, ularning til hodisalarini tahlil qilish, qiyoslash va amaliy nutqda qo'llash ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

O'zlashma so'zlarni o'rgatishda quyidagi metodik yo'nalishlar samarali hisoblanadi:

- so'zning kelib chiqishi va etimologiyasini aniqlash;
- o'zlashma so'zning lug'aviy va kontekstual ma'nosini tahlil qilish;
- inglizcha va o'zbekcha birliklarni qiyoslash;

- o‘zbekcha muqobillarini aniqlash;
- zamonaviy matnlardan o‘zlashma so‘zlarni topish;
- o‘zlashma so‘zlarning qo‘llanish sohasini belgilash;
- tematik lug‘at tuzish;
- o‘rganilgan so‘zlardan foydalanib, dialog, matn va taqdimot yaratish.

*Jadval*

**Integrativ yondashuv asosida ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarni o‘rgatish topshiriqlari**

| № | Topshiriq turi | Mazmuni | Rivojlantiriladigan kompetensiya |
|---|---|---|---|
| 1 | Leksik tahlil | O‘zlashgan so‘zning kelib chiqishi va ma’nosini aniqlash | Lingvistik kompetensiya |
| 2 | Qiyosiy tahlil | Inglizcha va o‘zbekcha birliklarni taqqoslash | Tahliliy fikrlash |
| 3 | Matn bilan ishlash | Zamonaviy matndan o‘zlashma so‘zlarni aniqlash | O‘qib tushunish |
| 4 | Lug‘at tuzish | Ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarning tematik lug‘atini yaratish | Leksik boylik |
| 5 | Dialog tuzish | O‘zlashma so‘zlardan foydalanib dialog yaratish | Nutqiy kompetensiya |
| 6 | Ijodiy yozuv | O‘zlashgan so‘zlardan foydalanib matn yaratish | Ijodiy yozish |
| 7 | Taqdimot | Muayyan sohadagi inglizcha o‘zlashmalar haqida taqdimot tayyorlash | Kommunikativ ko‘nikma |
| 8 | Muammoli topshiriq | So‘zning qo‘llanish o‘rnini va o‘zbekcha muqobilini aniqlash | Tanqidiy fikrlash |

Masalan, *startap* so‘zini o‘rganishda o‘quvchilar, dastlab, uning ingliz tilidan o‘zlashganligini aniqlaydi, lug‘aviy ma’nosini izohlaydi, o‘zbek tilidagi muqobil yoki izohli variantlarini topadi, so‘ngra ushbu so‘z ishtirokidagi zamonaviy matnni tahlil qiladi. Yakuniy bosqichda esa o‘quvchilar mazkur so‘zdan foydalanib, dialog yoki kichik taqdimot tayyorlaydi. Shu tariqa, bitta leksik birlikni o‘rganish jarayonida tahliliy, qiyosiy, o‘qish, yozish va kommunikativ faoliyatlar integratsiyalashadi.

**Muhokama (Discussion).** Tadqiqot natijalari ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarni an’anaviy yodlash asosida emas, balki ularning ma’nosi, kelib chiqishi, qo‘llanish sohasi va kommunikativ vazifasi bilan bog‘liq holda o‘rganish samaraliroq ekanligini ko‘rsatadi. Integrativ yondashuvning asosiy afzalligi shundaki, o‘quvchi o‘zlashma so‘zni alohida lug‘aviy birlik sifatida emas, balki muayyan til va madaniy muhitning bir qismi sifatida o‘zlashtiradi. Bu jarayonda ingliz tili va o‘zbek tili o‘rtasidagi leksik-semantik munosabatlarni aniqlash o‘quvchilarda lingvistik kuzatuvchanlik va tilga nisbatan ongli munosabatni shakllantiradi. Shuningdek, zamonaviy matnlardan foydalanish o‘quvchilarning o‘zlashma so‘zlarni real nutqiy vaziyatda anglashiga imkon beradi. Ayniqsa, texnologiya, ta’lim, iqtisodiyot va ommaviy axborot vositalariga oid matnlar o‘zlashma leksikani o‘rganish uchun samarali didaktik material vazifasini bajarishi mumkin.

Biroq o‘zlashma so‘zlarni o‘rgatishda ularning me’yoriy va uslubiy jihatlariga ham alohida e’tibor qaratish lozim. O‘quvchi muayyan inglizcha o‘zlashmaning ma’nosini bilish bilan birga, uni qaysi vaziyatda qo‘llash mumkinligi, o‘zbek tilida unga mos muqobil mavjud yoki mavjud emasligini ham anglay olishi zarur. Bu esa o‘quvchilarda nutqiy madaniyat va kommunikativ kompetensiyaning rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu jihatdan, integrativ yondashuv o‘zbek tili ta’limining mazmunini zamonaviylashtirish, uni real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘lash va o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini faollashtirish imkonini beradi.

**Xulosa (Conclusion).** Xulosa qilib aytganda, integrativ yondashuv asosida ingliz tilidan o‘zlashgan so‘zlarni o‘rgatish o‘zbek tili ta’limida samarali metodik yo‘nalishlardan biridir. Mazkur yondashuv o‘quvchilarning lug‘at boyligini kengaytirish, ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi leksik aloqalarni anglash, til hodisalarini tahlil qilish hamda o‘zlashma birliklardan kommunikativ vaziyatlarda to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Leksik tahlil, qiyoslash, matn bilan ishlash, lug‘at tuzish, muammoli topshiriqlar, dialog, ijodiy yozuv va taqdimot kabi metodlarning uyg‘un qo‘llanilishi o‘quv jarayonining amaliy samaradorligini oshiradi. Kelgusida mazkur yo‘nalishda raqamli ta’lim vositalari, interaktiv platformalar va elektron lug‘atlardan foydalanishga asoslangan metodik topshiriqlar tizimini ishlab chiqish dolzarb ilmiy-metodik vazifalardan biri hisoblanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

(1). Abu Rayhon Beruniy. Tanlangan asarlar. V tom. T., “Fan”, 1976, 664-bet.

(2). Alimjonov D. 6-sinf fizika fanini o‘qitishda fanlararo aloqalarni amalga oshirish usullari. Academic Research in Educational Sciences. 2022, vol. 3, Issue 6, ISSN: 2181-1385.

3. Коменский Я. Избранные педагогические сочинения. В 2-х томах.Т.1, М., 1982.

4. Кулагин П.Г. Межпредметные связи в процессе обучения. М., «Просвещение»,1981, с.96

**Raxmonova Amira Ulfatovna (PhD SamDCHTI dotsenti v.b.; amirarakhmonova9128@gmail.com)**

## INGLIZ VA O‘ZBEK SIYOSIY DISKURSINING UMUMIY HAMDA MILLIY-MADANIY XUSUSIYATLARI

***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek siyosiy diskursining umumiy hamda milliy-madaniy xususiyatlari qiyosiy-kontrastiv tahlil asosida o‘rganiladi. Tadqiqot T.van Deyk, N.Ferklof, R.Vodak kabi xorijiy olimlarning tanqidiy va sotsiokognitiv diskurs tahlili nazariyalari hamda Sh.Safarov, N.Mahmudov, D.Xudoyberganovaning pragmalingvistik va antropotsentrik yondashuvlariga tayanadi. Amerika va Buyuk Britaniya davlat arboblari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nutqlaridan olingan misollar asosida ikkala diskursda ham ishontirish, jamoaviy o‘zlikni shakllantirish va emotsional ta’sir kabi umumiy kommunikativ maqsadlar aniqlansa-da, ularning til vositalari orqali amalga oshirilishi milliy-madaniy va siyosiy-tarixiy kontekstga ko‘ra farqlanishi ko‘rsatiladi. Tahlil natijalari metafora, antiteza va frazeologik birliklarning har ikki diskursda turlicha manba-soha va yo‘nalishga ega ekanligini tasdiqlaydi.*

***Kalit so‘zlar:*** *siyosiy diskurs, qiyosiy-kontrastiv tahlil, metafora, antiteza, milliy-madaniy xususiyatlar, pragmalingvistika, tanqidiy diskurs tahlili, jamoaviy o‘zlik.*

## ОБЩИЕ И НАЦИОНАЛЬНО-КУЛЬТУРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ПОЛИТИЧЕСКОГО ДИСКУРСА

***Аннотация.*** *В статье на основе сравнительно-контрастивного анализа исследуются общие и национально-культурные особенности английского и узбекского политического дискурса. Исследование опирается на теории критического и социокогнитивного анализа дискурса зарубежных учёных, таких как Т.ван Дейк, Н.Фэрклоу и Р.Водак, а также на прагмалингвистический и антропоцентрический подходы Ш.Сафарова, Н.Махмудова и Д.Худойберга новой. На материале примеров из речей американских и британских государственных деятелей, а также Президента Республики Узбекистан показано, что, несмотря на наличие общих коммуникативных целей в обоих дискурсах, таких как убеждение, формирование коллективной идентичности и эмоциональное воздействие, их языковая реализация различается в зависимости от национально-культурного и политико-исторического контекста. Результаты анализа подтверждают, что метафора, антитеза и фразеологические единицы характеризуются различными сферами-источниками и прагматической направленностью в английском и узбекском политическом дискурсе.*

***Ключевые слова:*** *политический дискурс, сравнительно-контрастивный анализ, метафора, антитеза, национально-культурные особенности, прагмалингвистика, критический дискурс-анализ, коллективная идентичность.*

## GENERAL AND NATIONAL-CULTURAL FEATURES OF ENGLISH AND UZBEK POLITICAL DISCOURSE

***Annotation.*** *This article examines the general and national-cultural features of English and Uzbek political discourse through a comparative-contrastive analysis. The study draws on the theories of critical and sociocognitive discourse analysis developed by foreign scholars such as T.van Dijk, N.Fairclough, and R.Wodak, as well as on the pragmalinguistic and anthropocentric approaches of Sh.Safarov, N. Mahmudov, and D.Khudoyberganova. Based on examples drawn from the speeches of American and British political figures and the President of the Republic of Uzbekistan, the study demonstrates that although both discourses share common communicative goals, such as persuasion, the construction of collective identity, and emotional impact, their linguistic realization varies depending on national-cultural and political-historical contexts. The findings confirm that metaphors, antithesis, and phraseological units exhibit different source domains and pragmatic orientations in the two discourses.*

***Keywords:*** *political discourse, comparative-contrastive analysis, metaphor, antithesis, national-cultural features, pragmalinguistics, critical discourse analysis, collective identity.*

**Kirish.** Siyosiy diskurs zamonaviy tilshunoslikda siyosiy muloqotning muhim shakli sifatida qaralib, uning yordamida nafaqat siyosiy axborot uzatiladi, balki jamoatchilik ongiga ta’sir ko‘rsatiladi, siyosiy qarashlar shakllantiriladi hamda ijtimoiy birdamlik mustahkamlanadi. Globallashuv sharoitida turli tillar va